

**UMUMIY O‘RTA MAJBURIY TA‘LIMGA O‘TISH DAVRIDA
SURXONDARYO VILOYATI XALQ TA‘LIMI TIZIMI
(1972–1985-YILLAR)**

To‘xtashev Sherzod O‘ngboy o‘g‘li

Surxondaryo viloyati ichki ishlar boshqarmasi

Jinoyat qidiruv boshqarmasi

Korrupsiya va iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish

bo‘limi katta tezkor vakili

E-mail: [muallif@example.uz]

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada XX asrning 70-yillari boshlarida boshlangan umumiy o‘rta majburiy ta‘limga o‘tish jarayoni va uning Surxondaryo viloyati xalq ta‘limi tizimi rivojiga ta‘siri tarixiy nuqtai nazardan tahlil etilgan. Tadqiqotda 1972-yilgi SSSR Vazirlar Soveti va KPSS Markaziy Qo‘mitasining "Yoshlarning umumiy o‘rta ma‘lumotga o‘tishini yakunlash va umumta‘lim maktabini yanada rivojlantirish to‘g‘risida"gi qarori va uning amalga oshirilish jarayoni yoritilgan. Viloyatda 8 yillikdan 10 yillik majburiy ta‘limga o‘tish, maktab tarmog‘ining kengayishi, pedagogik kadrlarning malaka darajasining yaxshilanishi, shuningdek, o‘quvchilarning paxta yig‘im-terimiga jalb etilishi natijasida yuzaga kelgan muammolar tahlil etilgan. Muallif xulosa o‘rnida ushbu davrdagi yutuq va kamchiliklarning viloyatning keyingi ta‘lim rivoji uchun ahamiyatini baholaydi.

Kalit so‘zlar: *Surxondaryo viloyati, umumiy o‘rta majburiy ta‘lim, 10 yillik maktab, 1972-yilgi qaror, xalq ta‘limi, pedagogik kadrlar, paxta yig‘im-terimi, ta‘lim sifati, qishloq maktablari, internat-maktablar, kasb-hunarga yo‘naltirish.*

АННОТАЦИЯ

В статье с историко-научной точки зрения анализируется процесс перехода к всеобщему среднему обязательному образованию, начавшийся в начале 70-х годов XX века, и его влияние на развитие системы народного образования Сурхандарьинской области. В исследовании освещены постановление Совета Министров СССР и ЦК КПСС 1972 года «О завершении перехода ко всеобщему среднему образованию молодёжи и дальнейшем развитии общеобразовательной школы» и процесс его реализации. Проанализированы переход от 8-летнего к 10-летнему обязательному образованию в области, расширение школьной сети, улучшение квалификационного уровня педагогических кадров, а также проблемы, возникшие вследствие привлечения учащихся к хлопкоуборочным работам. В

заклучении автор оценивает значение достижений и недостатков данного периода для последующего развития образования в области.

Ключевые слова: Сурхандарьинская область, всеобщее обязательное среднее образование, 10-летняя школа, постановление 1972 года, народное образование, педагогические кадры, хлопкоуборочные работы, качество образования, сельские школы, школы-интернаты, профессиональная ориентация.

ABSTRACT

This article analyzes from a historical-scientific perspective the process of transition to universal compulsory secondary education that began in the early 1970s and its impact on the development of the public education system in Surkhandarya region. The study examines the 1972 resolution of the USSR Council of Ministers and the Central Committee of the CPSU "On the completion of the transition to universal secondary education for youth and the further development of the general education school" and the process of its implementation. The transition from 8-year to 10-year compulsory education in the region, the expansion of the school network, the improvement of the qualification level of pedagogical personnel, as well as the problems that arose due to the involvement of pupils in cotton harvesting are analyzed. In conclusion, the author evaluates the significance of the achievements and shortcomings of this period for the subsequent development of education in the region.

Keywords: Surkhandarya region, universal compulsory secondary education, 10-year school, 1972 resolution, public education, pedagogical personnel, cotton harvesting, quality of education, rural schools, boarding schools, vocational orientation.

KIRISH

XX asrning 70-yillari O‘zbekiston SSR xalq ta’limi tarixida sifat o‘zgarishlari davri sifatida e’tirof etiladi. Aynan shu yillarda mamlakat bo‘yicha umumiy o‘rta majburiy ta’limga o‘tish jarayoni yakunlandi. Bu jarayon urushdan keyingi davrda (1949-yilda) joriy etilgan majburiy yetti yillik ta’limning, keyinroq (1962–1963-o‘quv yilidan) sakkiz yillik ta’limga aylantirilishining mantiqiy davomi edi. 1972-yilgi qaror barcha sovet o‘smirlarini 10 yillik o‘rta ta’lim bilan qamrab olishni asosiy strategik vazifa qilib qo‘ydi.

Surxondaryo viloyati uchun bu vazifani amalga oshirish o‘ziga xos murakkabliklar bilan bog‘liq edi. Viloyat asosan agrar mintaqaga bo‘lib, aholisining katta qismi qishloq joylarda yashardi. Tog‘li va qiyin yetib boriladigan tumanlarda — Boysun, Sariosiyo, Uzun, Sherobod tumanlarining olis qishloqlarida — har bir aholi

punktida to'liq o'rta maktab tashkil etish moddiy-texnik jihatdan ham, pedagog kadrlar bilan ta'minlash jihatidan ham qiyin masala bo'lgan. Shu bilan birga, viloyat O'zbekistondagi eng yirik paxtachilik mintaqalaridan biri bo'lib, yillik paxta yig'im-terim mavsumida maktab o'quvchilari va o'qituvchilarining ko'plab kunlari dalada o'tib ketardi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Mavzuning ilmiy ahamiyati shundaki, 1972–1985-yillar oralig'idagi davr Surxondaryo viloyati xalq ta'limi tarixining "sovet ta'lim modeli"ning so'nggi va eng to'liq amal qilgan bosqichidir. Aynan shu davrda viloyatda hozirgi kunda ham faoliyat ko'rsatib kelayotgan ko'plab maktablar qurib bitkazildi, pedagogik kadrlar zaxirasi shakllandi, ta'lim infratuzilmasi mustahkamlandi. Biroq shu bilan birga, sovet ta'lim modelining ichki ziddiyatlari — ta'limning mafkuralashtirilishi, paxta yig'im-terimiga jalb etish orqali o'quv jarayonining buzilishi, milliy madaniyat va tilning ikkinchi darajaga tushirilishi kabi muammolar ham aynan shu yillarda eng yuqori cho'qqisiga chiqdi.

Tadqiqotning maqsadi — Surxondaryo viloyatida 1972–1985-yillarda umumiy o'rta majburiy ta'limga o'tish jarayonini, viloyat ta'lim tizimining bu davrdagi rivojini va shu jarayonda yuzaga chiqqan yutuq hamda muammolarni ilmiy-tarixiy nuqtai nazardan yoritishdir. Tadqiqotda tarixiylik, ilmiylik, qiyosiy-tarixiy tahlil, statistik tahlil va xronologik yondashuv tamoyillaridan foydalanildi.

XX asrning 60-yillarining ikkinchi yarmidan boshlab SSSRda barcha yoshlarning 10 yillik o'rta ma'lumot olishini ta'minlash strategik vazifa sifatida ilgari surila boshlandi. 1962–1963-o'quv yilida 7 yillik maktablarning 8 yillik maktablarga aylantirilishi bu yo'nalishdagi muhim qadam edi. 1972-yil 20-iyunda SSSR KPSS Markaziy Qo'mitasi va Vazirlar Soveti "Yoshlarning umumiy o'rta ma'lumotga o'tishini yakunlash va umumta'lim maktabini yanada rivojlantirish to'g'risida" deb nomlangan birgalikdagi qarorni qabul qildi. Mazkur qaror mamlakatda umumiy o'rta majburiy ta'limga o'tish jarayonining yakunlovchi bosqichi boshlanganini e'lon qildi.

Qarorning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat edi: 8 yillik majburiy ta'limni tugatgan barcha yoshlarni 10 yillik o'rta ta'lim olishlari uchun zarur shart-sharoit bilan ta'minlash; o'rta umumta'lim maktablari tarmog'ini, ayniqsa, qishloq joylarda, kengaytirish; o'rta ta'lim olish imkoniyatlarini diversifikatsiyalash, ya'ni yoshlar to'liq o'rta ta'limni nafaqat oddiy umumta'lim maktablarida, balki kasb-hunar bilim yurtlari, kasb-texnika maktablari, kechki maktablar orqali ham olishlarini ta'minlash; maktablarning moddiy-texnik bazasini yaxshilash; pedagogik kadrlarning malakasini oshirish.

Surxondaryo viloyatida 1972-yilgi qarorni amalga oshirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar majmuasi ishlab chiqildi. Birinchi navbatda, viloyat va tuman maorif bo'limlari xodimlari, mahalla va qishloq fuqarolar yig'ini vakillari ishtirokida 7–15 yoshli barcha o'smirlarni ro'yxatga olish ishi olib borildi. Bu ish ayniqsa olis qishloq joylarda — Boysun, Sariosiyo, Uzun, Sherobod, Denov tumanlarining tog' va tog'oldi qishloqlarida — alohida zo'r berib o'tkazildi. Maktabga qatnamayotgan, sakkiz yillik majburiy ta'limni tugatib, davom etmagan yoshlarni qaytadan o'qishga jalb etish ustida ish olib borildi.

Ikkinchi yo'nalish — viloyatda yangi 10 yillik maktablarni qurish va mavjud 8 yillik maktablarni 10 yillik maktablarga aylantirish ishi bo'ldi. To'qqizinchi besh yillik reja (1971–1975) va o'ninchi besh yillik reja (1976–1980) davrlarida viloyatda o'nlab yangi maktab binolari qurib bitkazildi. Ayniqsa, qishloq joylarda — Sherobod, Sho'rchi, Jarqo'rg'on, Qumqo'rg'on, Termiz, Denov, Sariosiyo tumanlarida — yangi tipdagi (uch qavatli, zamonaviy jihozlangan) maktablar paydo bo'la boshladi.

Uchinchi yo'nalish — viloyatda kasb-hunar ta'limi tizimini kengaytirish bo'ldi. 1972-yilgi qarorga muvofiq yoshlar 10 yillik ta'limni nafaqat oddiy umumta'lim maktablarida, balki kasb-hunar bilim yurtlarida ham olishlari mumkin edi. Viloyatda paxtachilik, chorvachilik, qurilish, transport, savdo, xizmat ko'rsatish sohalariga ixtisoslashgan kasb-hunar texnika bilim yurtlari (KHTBY/SPTU) tarmog'i kengaytirildi. Bu muassasalarda yoshlar bir vaqtning o'zida ham umumta'lim, ham kasbiy ta'lim olishardi.

Internat-maktablar tarmog'i. Tog'li va olis qishloq tumanlarda yashovchi bolalarni o'rta ta'lim bilan qamrab olish maqsadida internat-maktablar tarmog'i kengaytirildi. 1956-yildan boshlab SSSRda joriy etilgan internat-maktablar tizimi 70-yillarda viloyatda jadal rivojlandi: Boysun, Sariosiyo, Sherobod, Uzun, Termiz va boshqa tumanlarda yangi internat-maktablar ochildi. Ayniqsa, ko'p bolali qishloq oilalaridan kelgan iqtidorli o'quvchilar, yetim va qaramog'idagi bolalar uchun maxsus internat-maktablar mavjud edi. Bu muassasalar viloyatdagi tog' va olis hududlardagi bolalarning to'liq o'rta ma'lumot olish imkoniyatlarini sezilarli kengaytirdi.

To'rtinchi yo'nalish — kechki va sirtqi (umumiy o'rta ma'lumot) maktablar faoliyatining kengaytirilishi bo'ldi. Sakkiz yillik ta'limni tugatib ishlashga ketgan, ammo to'liq o'rta ma'lumotga ega bo'lmagan ishchi va xizmatchi yoshlarni o'qitish maqsadida viloyat shaharlari va yirik qishloq xo'jaligi punktlarida kechki maktablar tarmog'i kengaytirildi. Bu maktablar 70–80-yillarda viloyatdagi 10 yillik ta'lim bilan qamrab olish ko'rsatkichini oshirishda muhim rol o'ynadi.

1972–1985-yillar oralig‘ida Surxondaryo viloyatida maktab tarmog‘i sezilarli darajada kengaydi. Sovet davlatining bu davrda xalq ta‘limi sohasiga ajratayotgan mablag‘lari yildan-yilga ortib bordi va viloyat ham ushbu jarayondan o‘z ulushini olar edi. To‘qqizinchi (1971–1975), o‘ninchi (1976–1980) va o‘n birinchi (1981–1985) besh yillik rejalarning xalq ta‘limiga oid vazifalari Surxondaryo viloyatida ham izchil amalga oshirildi.

Maktab tarmog‘i o‘shining quyidagi asosiy yo‘nalishlari ko‘zga tashlanadi: birinchidan, viloyat markazi Termiz, Denov, Sherobod, Sho‘rchi, Boysun, Sariosiyo, Qumqo‘rg‘on, Jarqo‘rg‘on kabi shaharlarda yangi umumta‘lim maktablari, ixtisoslashtirilgan rus tilini chuqur o‘rganadigan maktablar, fizika-matematika va aniq fanlar chuqurlashtirilgan sinflar ochildi. Ikkinchidan, qishloq joylarda 8 yillik maktablar bosqichma-bosqich 10 yillik maktablarga aylantirildi. Uchinchidan, viloyatning olis va aholi siyrak tumanlarida yangi internat-maktablar tashkil etildi.

Sovet davrida amaliyotga keng tatbiq etilgan ixtisoslashtirilgan maktablar tizimi viloyatda ham rivojlandi. Xususan, rus tilini chuqur o‘rganadigan maktablar tarmog‘i kengaytirildi. Mamlakat miqyosida 1980-yillar boshiga kelib rus tilini chuqur o‘rganish bilan shug‘ullanadigan 13 maxsus maktab-internat va 1959 ta umumta‘lim maktablari ochilganligi haqida ma‘lumotlar mavjud. Bunday maktablar Surxondaryo viloyatida ham, asosan Termiz va boshqa yirik shaharlarda, faoliyat ko‘rsatardi. 1975 va 1979-yillarda Toshkentda, 1983-yilning 20–21-mayida esa Samarqand shahrida rus tilini o‘qitishni yaxshilashga bag‘ishlangan Butunittifoq nazariy-ilmiy konferensiyalari o‘tkazilib, ularda viloyat o‘qituvchilari ham ishtirok etgan.

Pedagogik kadrlar tayyorlash tizimi. 1972–1985-yillar Surxondaryo viloyati pedagogik kadrlar tayyorlash tizimida muhim o‘zgarishlar davri bo‘ldi. Eski Termiz pedagogika bilim yurti bilan birga, viloyatda oliy pedagogika ta‘limi muassasalari ham shakllana boshladi. Termiz davlat pedagogika instituti (keyinchalik Termiz davlat universiteti) viloyat uchun asosiy oliy pedagogika ta‘limi markaziga aylandi. Mazkur institut har yili matematika, fizika, kimyo, biologiya, ona tili va adabiyot, tarix, chet tili, jismoniy tarbiya va boshqa yo‘nalishlarda yuzlab o‘qituvchilarni tayyorlab, viloyat maktablariga yo‘naltirib turardi.

Shu bilan birga, viloyat maktablari uchun pedagog kadrlar qo‘shni viloyatlardagi yetakchi oliy o‘quv yurtlari — Samarqand davlat universiteti, Buxoro davlat pedagogika instituti, Toshkent davlat universiteti va Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutidan ham yetkazib berildi. Mamlakat miqyosida pedagogika kadrlarini tayyorlashning yagona tartibga solingan tizimi 70-yillarda allaqachon shakllangan edi: 1962-yilda ToshDU qoshida birinchi marta pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar beruvchi Birlashgan Sovet tashkil etilgan, 1952-yildan

boshlab o'qituvchilar institutlari pedagogika institutlariga aylantirilgan, 1953-yildan pedbilim yurtlari o'rta maktab negizida ishlaydigan bo'lgan edi. Bu tizim 70–80-yillarda samarali ishlab, Surxondaryo viloyatining ham pedagogik kadrlarga bo'lgan ehtiyojini ta'minlashda muhim rol o'ynadi.

70–80-yillarning o'rtalariga kelib viloyat maktablarida ishlovchi o'qituvchilarning aksariyat qismi oliy yoki to'liq o'rta maxsus pedagogik ma'lumotga ega edi. Bu — urushdan keyingi davrning (1945–1946-o'quv yilida 2682 o'qituvchidan atigi 71 nafari oliy ma'lumotli edi) o'sha davriga nisbatan tubdan farq qiluvchi sifat o'zgarish edi. Oliy ma'lumotli pedagoglar ulushi 1985-yilga kelib viloyat bo'yicha 70–75 foizga yetdi. Bu, shubhasiz, viloyatda ta'lim sifatining yaxshilanishida muhim omil bo'ldi.

Pedagog kadrlarning ijtimoiy-moddiy ahvoli ham 70–80-yillarda urushdan keyingi davrga nisbatan sezilarli yaxshilangan edi. O'qituvchilar oylik maoshlari muntazam ravishda ko'tarilib, qishloq joylarida ishlaydigan pedagoglarga turli imtiyozlar (yer uchastkasi, yoqilg'i bilan ta'minlash, uy-joy navbati bo'yicha imtiyoz) berilardi. Shu bilan birga, jamiyatda o'qituvchi kasbining ijtimoiy nufuzi yuqori darajada saqlanardi: maktab direktori, viloyatda hurmatli o'qituvchilar tuman va viloyat ijtimoiy hayotida faol o'rin egallardi.

70–80-yillardagi umumiy o'rta majburiy ta'lim siyosatining yutuqlari bilan birga bir qator jiddiy ziddiyatlari va salbiy oqibatlar ham yuzaga keldi. Surxondaryo viloyati misolida bu muammolarni quyidagi yo'nalishlarda ko'rib chiqish mumkin.

Birinchi muammo — paxta yig'im-terimiga o'quvchilarning ommaviy jalb etilishi. 70–80-yillarda Surxondaryo viloyati O'zbekistondagi yetakchi paxtachilik mintaqalaridan biriga aylangan edi. Yillik paxta yig'im-terim mavsumi (sentyabr–oktyabr–noyabr oylari) viloyat ta'limi uchun jiddiy sinov davri bo'lardi. Maktab o'quvchilari, asosan 8–10-sinflar, shuningdek, o'qituvchilarning katta qismi 1,5–3 oy davomida paxta dalalariga jalb etilardi. Bu davrda darslar to'xtatilar yoki nominal ravishda o'tkazilardi. Adabiyotlarda qayd etilishicha, o'quv yilining 3–4 oyi mazkur majburiy tadbirlar bilan band bo'lib, bu o'zbek o'quvchisini jahon standartlaridan ortda qoldirar va zamonaviy fan sohalarini o'zlashtirishga imkon bermay qo'yardi.

Surxondaryo viloyatida paxta terimiga bolalar mehnatining keng qo'llanilishi viloyat ta'limining muhim muammosi edi. Maktab direktorlari va tuman maorif bo'limlari bir tomondan paxta planini bajarish bo'yicha viloyat va respublika rahbariyatining qattiq talablariga duch kelishar, ikkinchi tomondan o'quvchilar va o'qituvchilarning sog'lig'ini, ta'lim sifatini saqlash zaruriyatini his etishardi. Bu ziddiyat tizimli xarakterga ega bo'lib, 70–80-yillar davomida hal etilmagan holda

davom etdi va faqat O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin ushbu amaliyot to'xtatildi.

Ikkinchi muammo — ta'limning mafkuralashtirilishi. 70–80-yillarda umumiy o'rta majburiy ta'lim mazmunan kuchli mafkuralashtirilgan edi. O'quv dasturlarining katta qismi marksizm-leninizm asoslari, KPSS tarixi, partiya hujjatlari va sovet g'oyaviyligini singdirishga yo'naltirilgan edi. O'zbek xalqining milliy tarixi, madaniyati, urf-odatlar, jadidchilik harakati, mustaqillik uchun kurashgan ma'rifatparvarlar to'g'risida ma'lumotlar deyarli berilmasdi yoki bir tomonlama, salbiy talqinda yoritilardi. Tarix darslarida "sovet xalqi" tushunchasi ustun bo'lib, mahalliy xalqlarning milliy o'ziga xosligi ikkinchi darajaga tushirilgan edi. Bu hol Surxondaryo viloyatining ko'p qatlamli, qadimiy tarixiy o'tmishga ega aholisi uchun ayniqsa sezilarli muammo edi: viloyatning Termiz, Boysun, Sherobod, Denov hududlarining buyuk tarixi va madaniyati maktab dasturlarida yetarli aks ettirilmas edi.

Uchinchi muammo — rus tilining ustuvor mavqei va milliy tilning ikkinchi darajaga tushirilishi. 70–80-yillarda butun mamlakat bo'yicha rus tili "millatlararo muloqot tili" sifatida g'oyaviy va amaliy jihatdan kuchli mavqega ko'tarildi. Maktabdan tortib oliy o'quv yurtlariga qadar mahalliy millat vakillariga rus tilini o'rganish majburiyati yuklatildi. Maktablar, oliy va o'rta-maxsus o'quv yurtlaridagi barcha binolar, xonalar va yotoqxonalarda asosan rus tilida tashviqot va targ'ibot ko'rgazma qurollari, shiorlar va chaqiriqlar joylashtirilardi. Surxondaryo viloyatining o'zbek tilli aholisi katta ko'pchilikni tashkil etishiga qaramay, viloyatda rus tilini chuqur o'rganadigan maxsus maktablar tarmog'i kengaytirildi, ba'zi fanlar bo'yicha eng yaxshi darsliklar va o'quv qo'llanmalari rus tilida edi. O'zbek tilida o'qitiladigan maktablarning ko'pchiligida o'quv-uslubiy adabiyotlar tanqisligi sezilardi.

To'rtinchi muammo — ta'limning kvantitativ ko'rsatkichlariga e'tibor. 70–80-yillarda sovet xalq ta'limi tizimi son ko'rsatkichlariga (maktablar soni, o'quvchilar soni, o'qituvchilar soni, o'zlashtirish foizi) g'oyat katta e'tibor qaratardi. Bu hol amaliyotda "qog'ozda yutuq" ko'rinishidagi rasmiyatchilikka olib keldi. Maktab direktorlari va o'qituvchilar yuqori o'zlashtirish foizini ko'rsatish uchun zaif o'qiydigan o'quvchilarga ham qoniqarli baholar qo'yishga, sinfdan-sinfga o'tkazishga majbur bo'lar edi. Natijada 1985-yilga kelib maktab o'quvchilarining o'quv rejasidagi soatlarini o'zlashtira olmasligi odatiy hol bo'lib qoldi. Bu — paxta yig'im-terimiga jalb etilish bilan birga viloyat ta'lim sifatining haqiqiy darajasini pasaytirgan asosiy omillardan biri bo'ldi.

Shu bilan birga, viloyat ta'lim tizimining ushbu davrdagi yutuqlarini ham e'tirof etish lozim. Birinchidan, viloyatda 10 yillik majburiy ta'lim bilan qamrab olish

darajasi sezilarli kengaydi. 1985-yilga kelib viloyatdagi 15–17 yoshli yoshlarning aksariyat qismi yo umumta’lim maktablarida, yo kasb-hunar texnika bilim yurtlarida o’qiyotgan, yoki kechki maktablarda ta’lim olayotgan edi. Aholining umumiy savodxonlik darajasi tarixan eng yuqori ko’rsatkichlarga yetdi.

Ikkinchidan, viloyatning maktab tarmog’i sifat jihatdan tubdan o’zgardi: zamonaviy uch qavatli, kabinet tizimi yo’lga qo’yilgan, ko’rgazma qurollari, kichik laboratoriya jihozlari bilan ta’minlangan maktablar paydo bo’ldi. Bu maktablar viloyatning katta qismida mustaqillik davrida ham (ya’ni 1990-yillar va undan keyin) ta’limning asosiy bazasini tashkil etib keldi.

Uchinchidan, pedagogik kadrlar tayyorlash tizimi shakllandi. Termiz davlat pedagogika instituti viloyat uchun asosiy oliy pedagogika ta’limi markaziga aylandi va minglab malakali o’qituvchilar tayyorlab berdi.

To’rtinchidan, viloyatda o’qituvchi kasbining ijtimoiy nufuzi yuqori darajada saqlandi. Bu — keyinchalik mustaqillik davrida xalq ta’limi sohasini saqlash va rivojlantirish uchun muhim ahamiyat kasb etgan ma’naviy zaxira bo’ldi.

XULOSA

Birinchidan, 1972-yilgi SSSR Vazirlar Soveti va KPSS Markaziy Qo’mitasining "Yoshlarning umumiy o’rta ma’lumotga o’tishini yakunlash va umumta’lim maktabini yanada rivojlantirish to’g’risida"gi qarori Surxondaryo viloyati xalq ta’limi tarixida sifat o’zgarishlar davrini boshlab berdi. Mazkur qaror viloyatda 10 yillik majburiy ta’limga bosqichma-bosqich o’tish, maktab tarmog’ini kengaytirish va pedagog kadrlar bilan ta’minlash yo’nalishida keng ko’lamli vazifalarni belgilab berdi.

Ikkinchidan, 1972–1985-yillar oralig’ida viloyatda yetti, sakkiz va 10 yillik maktablar tarmog’i sezilarli kengaydi, yangi tipdagi zamonaviy maktab binolari qurib bitkazildi, kasb-hunar texnika bilim yurtlari, internat-maktablar va kechki maktablar tarmog’i rivojlantirildi. Bu jarayon viloyatning barcha tumanlarini, jumladan, olis tog’ qishloqlarini ham ta’lim xizmatlari bilan qamrab olish imkonini berdi.

Uchinchidan, viloyat pedagog kadrlarining sifat tarkibi tubdan o’zgardi. Termiz davlat pedagogika institutining tashkil etilishi va faoliyat ko’rsatishi viloyatni asosan o’z hisobidan malakali o’qituvchilar bilan ta’minlash imkoniyatini yaratdi. 1985-yilga kelib viloyat maktablarida ishlaydigan o’qituvchilarning katta qismi oliy yoki to’liq o’rta maxsus pedagogik ma’lumotga ega edi.

To’rtinchidan, 10 yillik majburiy ta’limning joriy etilishi viloyat aholisining umumiy savodxonlik va madaniy darajasining sezilarli oshishiga olib keldi. Yoshlarning aksariyat qismi to’liq o’rta ma’lumot bilan qamrab olindi, qishloq qizlari uchun ham bu ta’lim darajasi standart ko’rsatkichga aylandi.

Beshinchidan, shu bilan birga, 1972–1985-yillar viloyat xalq ta’limi rivojining ichki ziddiyatlari kuchaygan davr ham bo’ldi. Paxta yig’im-terimi mavsumida o’quvchilarning ommaviy jalb etilishi, ta’limning kuchli mafkuralashtirilishi, milliy madaniyat va tilning ikkinchi darajaga tushirilishi, son ko’rsatkichlarini qog’ozda ko’rsatishga e’tibor — bu omillar haqiqiy ta’lim sifatining sezilarli pasayishiga olib keldi va keyinchalik mustaqillik davrida ta’lim islohotlarining zaruratini taqozo etgan jiddiy muammolarga aylandi.

Oltinchidan, 1972–1985-yillardagi sovet ta’lim modelining tajribasi keyingi davrlar — mustaqillik arafasidagi va mustaqillik davridagi xalq ta’limi rivoji uchun ham ijobiy, ham salbiy o’rnaklar qoldirdi. Maktab tarmog’i, pedagogik kadrlar zaxirasi, infratuzilma — bular keyingi avlodlar uchun saqlanib qolgan ijobiy meros bo’lsa, ta’limning mafkuralashtirilishi, o’quvchilarni majburiy mehnatga jalb etish kabi salbiy amaliyotlar bartaraf etilishi lozim bo’lgan illatlar bo’lib qoldi.

Mazkur mavzu kelgusida Surxondaryo viloyati davlat arxivi materiallari, tuman va aniq maktablar miqyosidagi hujjatlar asosida yanada chuqurroq tadqiq etilishi, davr guvohlari — qariya o’qituvchilarning xotiralari yozib olinishi, har bir tuman bo’yicha statistik dinamika tiklanishi, viloyat ta’limining etnomadaniy va lingvistik tomonlari batafsil yoritilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Surxondaryo viloyati / O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. — Toshkent: O‘zME Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. — 8-jild.
2. Tursunov S.N. Surxondaryo tarixini o‘rganish. — Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi meros nashriyoti, 1999. — 248 b.
3. Tursunov S.N., Qobilov E., Pardayev T., Murtozayev B. Surxondaryo tarix ko‘zgasida. — Toshkent: Sharq, 2001. — 312 b.
4. Murtazoyeva R.H. O‘zbekistonda ijtimoiy-madaniy hayot (XX asr): tarixiy tahlil. — Toshkent: O‘zbekiston, 2009. — 312 b.
5. O‘zbekiston tarixi (1917–1991-yillar): akademik litsey va kasb-hunar kollejlari 1-bosqich o‘quvchilari uchun darslik / mas’ul muharrir: Q. Rajabov. — Toshkent: Sharq, 2010. — 416 b.
6. Sodiqov X. va boshq. O‘zbekiston tarixi (1917–1991-yillar). — Toshkent: O‘qituvchi, 2019. — 480 b.
7. Karimov O. XX asrning 70–80-yillarida O‘zbekiston xalq ta’limi tizimida pedagog kadrlar masalasi // FTAI. — 2022. — Jild 3, Nashr 4. — B. 89–96.
8. Joldasov O. Sovet ta’lim tizimi: tarix va tahlil // Oyina jurnali. — 2023. — № 4. — B. 15–22.

9. Ergashev I. Janubiy O‘zbekistonda pedagogik kadrlar tayyorlash tarixi (XX asrning ikkinchi yarmi) // *Oriental Journal of History, Politics and Law*. — 2024. — Vol. 4, Issue 6. — P. 70–75.
10. Bobomurodov O., Yo‘ldoshev R. Surxondaryo viloyati tarixi: ma‘muriy tuzilish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish. — Termiz: Surxon-nashr, 2018. — 196 b.
11. SSSR KPSS MQ va Vazirlar Sovetining 1972-yil 20-iyundagi "Yoshlarning umumiy o‘rta ma‘lumotga o‘tishini yakunlash va umumta‘lim maktabini yanada rivojlantirish to‘g‘risida"gi qarori // *SSSR Vazirlar Soveti qarorlari to‘plami*. — 1972. — № 14. — 79-modda.
12. Surxondaryo viloyati davlat arxivi, R-1-fond (Viloyat xalq maorifi bo‘limi), 1-ro‘yxat, 1972–1985-yillarga oid hujjatlar.
13. O‘zbekistonda paxta yetishtirish va maktab o‘quvchilarining unga jalb etilishi muammosi // Oxshamzoda L. "Cotton harvesting" tadqiqotlari. — 2025.